# “Sotuvchi kabineti”. Ro‘yxatdan o’tish va oferta.

Tadbirkorlar **Smart-Market**da o‘z mahsulot va xizmatlarini joylashtirishlari uchun avvalo tizimga kirishlari kerak. Bu esa bosh sahifadagi **“sotuvchi kabineti”** tugmasi orqali amalga oshiriladi.




- **Login** va **parol** orqali ta’minotchi sifatida tizimga kiriladi.

- Shuningdek **ERI** (elektron raqamli imzo) orqali ham platformaga kirish mumkin.




- **ERI** yordamida tizimga kirishda elektron raqamli imzo kaliti teriladi.



- Tizimga kirgach, chap yon qatordan **“rekvizitlar”** bo‘limiga o‘tiladi.




- Ko‘ringan oyna - ta’minotchining korxona yoki tashkilotiga doir asosiy rekvizitlar qatori.




- **“Ma’lumotlarni o‘zgartirish”** tugmasini bosish orqali bu qatorni yangilash mumkin. Jarayon **“saqlash”** tugmasini bosish orqali yakunlanadi.




- Keyingi qadam - bu **“Smart-Market” marketpleys tizimidan foydalanish bo‘yicha ommaviy oferta** bilan tanishish.





SMART-MARKET.UZ

**Электрон савдо майдончасидан фойдаланиш бўйича**

**ОММАВИЙ ОФЕРТА**

Тошкент шаҳри — 2024 йил 8 апрелдаги таҳрири

**"SMART MARKETPLACE" МЧЖ** (Кейинги ўринларда – **«Хизмат кўрсатувчи»** деб юритилади) Устав асосида фаолият кўрсатувчи директор **Алимов Азимжон Насимович** номидан "Smart Marketplace" Электрон савдо майдончаси (Кейинги ўринларда – Ахборот тизими деб юритилиши мумкин) орқали қуйидаги шартлар асосида хизмат кўрсатишни таклиф этади.

Ушбу оммавий оферта Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодексининг 367-моддаси асосида тузилган бўлиб, smart-market.uz электрон савдо майдончаси орқали маҳсулот ва хизматларни сотиш ҳамда сотиб олиш бўйича ахборот хизматларни кўрсатиш таклифини ўз ичига олади.

**1. АТАМАЛАР ВА ТУШУНЧАЛАР**

**1.1.** Мазкур Офертада қуйидаги атама ва тушунчалардан фойдаланилган:

**Ахборот тизими** («smart-market.uz») – бозор тамойиллари асосида маҳсулот ва хизматларни эркин сотиш ёки сотиб олиш имконини берадиган дастурий маҳсулот.

**Шахсий кабинет** – ахборот тизимида маҳсулот ва хизматларни сотиш, сотиб олиш, тўловлар тўғрисида маълумот бериш, буюртмаларни амалга ошириш ва бошқа турдаги хизматлардан фойдаланиш учун яратилган дастурий интерфейс.

**Таъминотчи** – ахборот тизими орқали ўз маҳсулот ва хизматларини сотувчи хўжалик юритувчи субъект.

**Воситачи ташкилот** – ахборот тизимида Харидор сифатида рўйхатдан ўтган субъектнинг тўлов қобилиятини текшириш (баҳолаш) ва Харидорнинг Ахборот тизими орқали Таъминотчи (сотувчи)дан Маҳсулотни бўлиб-бўлиб тўлаш шарти билан сотиб олиш

- Ofertaning elektron ko‘rinshi

bilan tanishib chiqqach, **“ERI” kalit orqali imzolanadi.**



- Oferta imzolanganidan so‘ng ta’minotchining profilida quyidagi **ma’lumotlar oynasi** ochiladi:




- Bosh sahifa, tovar va xizmatlar, omborxona manzili, buyurtmalar, shartnomalar, fakturalar, omborxona, rekvizitlar, oferta, to‘lovlar, kredit to‘lovlar, MXIK biriktirish, xabarnoma, chorva ma’lumotlari, yo‘riqnoma, to‘lov tashkilotlari, chiqish.

- Har bir bo‘lim ta’minotchi faoliyatini yanada yaxshilash uchun xizmat qiladi.

Masalan, birgina “**omborxona manzili**” bo‘limiga kirib, siz mavjud yoki yangi omborxona bo‘yicha asosiy ma’lumotlarni kiritishingiz mumkin.



- Navbatdagi qadam **hujjat.uz** orqali ofertani imzolash. Buning uchun **“oferta” bo‘limi**ga kirib, u yerdan **hujjat.uz oferta**ni tanlash va ta’minotchi korxona hamda va “Realsoft” MChJ o‘rtasida “hujjat.uz” axborot tizimida elektron hujjat aylanishi xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha ommaviy ofertani ko‘rish mumkin. Shundan so‘ng **“Men ommaviy oferta shartlarini qabul qilaman”** tugmasini bosish zarur.




- So‘ng **“tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tish”** tumasini bosib, **ERI** orqali imzolash kerak.



- **“Rekvizitlar”** bo‘limida oferta imzolangan sana ko‘rinib turadi.

